

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI “BAXT” BOSH LEKSEMALI MAQOLLARDA SINONIMIK MUNOSABATNING IFODALANISHI

Qosimova Nafisa Farhodovna,
f.f.f.d (PhD), dotsent, BuxDU

Sharipova Dilafro‘z Baxtiyorovna,
BuxDU II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “baxt” bosh leksemali maqollarda sinonimik munosabatning ifodalanishi qiyosiy tahlil qilingan. Qiyosiy tahlil vositasida ingliz va o‘zbek xalq maqollari tarjima variantining o‘xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, maqollar, sinonimik munosabat, leksik-ma’naviy guruh, variantlar.*

Bugungi kunda maqollarni atroflicha kengroq va chuqurroq tahlil etish, ularning turli tillardagi milliy-ma’naviy hamda umumbashariy qadriyatlarini qiyoslash usulida o‘rganish zamonaviy tilshunosligimizning dolzarb muammosi bo‘lib kelmoqda. Zero, maqol va matallar xalq tilining barhayot sarchashmalari, ma’naviy boyligining qimmatbaho xazinasini sanaladi. Xalq asrlar davomida sayqal berib kelgan har bir maqol yetuk bir badiiy asar sifatida baholanadi. Badiiy asar so‘z san’ati namunasi hisoblanadi. Shunday ekan, maqollarni til boyligi, so‘z san’ati sirli-sehrli xazinasining durdonasi sifatida olib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Da’vomizni “taqdir” leksik-semantik maydoniga mansub, uning tarkibiy qismi hisoblangan “baxt” bosh leksemali maqollar misolida isbotlashga harakat qilamiz:

1. Vatani borning -baxti bor.
2. Elning baxti-erning baxti.
3. Ahdi borning baxti bor.
4. Baxt-yalqovga begona.
5. Mehnat-baxt keltirar.
6. Tirishgan tog‘dan oshar, Ter to‘kkan baxtli yashar.
7. Tinchlik-baxt, sog‘lik-taxt.
8. Aqlli baxt topar, Baxt bilan taxt topar.
9. Bilim-baxt keltirar.

10. Yaxshi husn-yarim baxt.
11. Husn goh baxt keltirar, goh-kulfat.
12. Avvalgi baxtim-gul baxtim, Keyingi baxtim-suvga otdim.
13. Baxt-kulgu bor uyga kirar.
14. Xotin baxti erda bo‘lar, Yetim baxti-yerda.
15. Xon taxtidan qo‘rqar, Qiz-baxtidan.
16. Rosrgo‘ylik-baxt, Yolg‘onchi-badbaxt.
17. Odob bilan baxt topilar, Sabr bilan-taxt.

Keltirilgan ro‘yxatdagi maqollarni ma‘naviy guruhlarga ajratganda quyidagicha manzara hosil bo‘ladi: “Baxt” deganda “Vatan”, “el”, “ahd”, “mehnat va mehnatsevarlik”, “tinchlik”, “sog‘lik”, “aql”, “bilim”, “husn”, “hayot yo‘ldoshi”, “shodlik”, “rostgo‘ylik”, “odob” va b. Albatta, bu gurulanish shartli ravishda bo‘lib, maqolda ko‘chma ma‘no ifodasini ham unutmash lozim. Tadqiqot obyekti sifatida olingan ushbu maqollar bilan sinonimik munosabatga kirishuvchi variantlar sifatida quyidagi misollarni keltirish mumkin: Chunonchi, “Vatani borning -baxti bor” maqoli bilan sinonimik munosabat hosil qiluvchi – Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni – bo‘ri; “Ayrilmagin elingdan, quvvat ketar belingdan”; “Ayrilgan ozar, birlashgan o‘zap”; “Yordan ayrilsang ham, eldan ayrilma”; “Yo‘ldan chiqsang ham, eldan chiqma”; “To‘dadan ajralgan to‘rga tushar”; “To‘dadan ayrilgan qo‘yni buri yutar”; “To‘pidan ayrilganni qaroqchi sanchar”; “Yurtdan ayrilganni yov chopadi”; “To‘pidan ayrilgan g‘oz tup qarg‘aga yem bo‘lur”; “To‘pdan chiqsang ham, ko‘pdan chiqma”; “Ochdan qolsang qol, ko‘pdan qolma”; “Qatordan qolding – xatarda qolding” (tuya karvonini ham “qator” deydilar. Agar qatordan, ya‘ni karvondan ajrasang, yakka o‘zing cho‘l-biyobonlarda katta xavf- xatarga duchor bo‘lishing – talonchiga yo‘liqishing, yirtqichlarga em bo‘lishing mumkin, shuning uchun ko‘pchilikdan sira ajray ko‘rma, deyilmoqchi) kabi variantlar mavjud.

“Aqlli baxt topar, Baxt bilan taxt topar” maqoli bilan sinonimik munosabat hosil qiluvchi – “Aql – odamning oltin toji”; “Aqldan ortiq boylik yo‘q”; “Aql – dunyoning ko‘zi”; “Aql – odamning ko‘rki”; “Boqqa bulbul yarashar, odamga – aql”; “Aql – oltin sandiq, odamiga qarab ochiladi”; “Odamning tizgini – aql”; “Til – tan qorovuli, Aql – jon qorovuli”; “Ko‘z bor – ko‘rmoq uchun, Aql bor – bilmoq uchun”; “Aql – ko‘rga ko‘z, soqovga til”; “Aql – suvdan tiniq, oynadan ravshan”; “Aql – rohatda emas, rohat – akdda”; “Odam aqli – olmos, kesmagani qolmas”; “Oy tunda kerak, Aql kunda kerak”; “Aql ko‘pga yetkazar, Hunar ko‘kka yetkazar”; “Dono – durdan a‘lo”; “Donolikning cheki yo‘q”; “Dono qarisa ham, donoligi qarimas”; “Bilimlidan aql chiqar, Aqlidan naql chiqar”; “Aqlli bor uyda ahillik bor”;

“Chiroylikka qarash yaxshi, aqlli bilan yashash yaxshi”; “Odam moli bilan odam emas, kamoli bilan odam”; “Aqcha topguncha aql top”; “Aql bilan mol to‘plasa bo‘ladi, Mol bilan aql to‘plab bo‘lmaydi”; “Mol bilan boy bo‘lma, Aql bilan boy bo‘l”; “Aqlsiz boy bo‘lguncha, Aqlli gadoy bo‘l”; “Kishi aqli bilan boy bo‘lguncha, o‘z aqling bilan gadoy bo‘l”; Aqlning bozori yo‘q, farosatning – tarozisi”; “Aqlning bozori yo‘q, Hayvonning - mozori”; “Hayf sumbat, aql - qimmat” (hayf soxta - sumbatingga, aqling bo‘lmaganidan keyin, demoqchi); “Yuzta ahmoqdan bitta aqlli zo‘r”; “Tuyaday bo‘ying bo‘lguncha, tugmaday o‘ying bo‘lsin”; “Chinordek bo‘y berguncha, tumordek o‘y bersin”; “Aql aqldan quvvat oladi”; “Aql boshdan chiqadi, Asl toshdan chiqadi”; “Aql yoshda emas boshda”; “Ulug‘lik yoshda emas, boshda”; “Aql - yoshdan, odob boshdan”; “Totli suv toshdan chiqar, Yaxshi aql yoshdan chiqar”; “Aql bo‘y bilan o‘lchanmas”; “Bo‘y yetmagan yerga o‘y yetadi”; “Birovning bo‘yi kalta, Birovning o‘yi kalta”; “Aqli ozning azobi ko‘p”; “Esi pastning - ishi past”; “Fikrli odam bosh bo‘lur, Fikrsiz odam tosh bo‘lur”; “Aqlsiz kallaning xom qovoqdan farqi yo‘q”; “Bosh bo‘lmasa, gavda - losh” (losh - murda, jasad); “Boshi yo‘qning oshi yo‘q”; “Aqlsiz og‘zidagin oldirar”; “Aqli sayoz pand eydi, Aqli teran qand eydi”; “Aqlining oti horimas, to‘ni to‘zmas”; “Aqlining yoqqan chirog‘in ahmoq urib o‘chirolmas”; “Aqlli ishlab ishini bitiradi, Aqlsiz ishlab umrini bitiradi”; “Aqlli maqtansa, ishini tindirar, Aqlsiz maqtansa, oyog‘in sindirar”; “Aqlining ishidan ko‘ngling suyunar, Aqlsizning ishidan fahming koyinar”; “Aqlli er - el bolasi, Aqlsiz er - el balosi”; “Adabsiz uyga kirib bo‘lmas, Aqlsiz yurtda turib bo‘lmas” singari variantlar mavjud.

“Mehnat-baxt keltirar” maqoli bilan sinonimik munosabat hosil qiluvchi – “Baxt - tilakda emas, bilakda”; “Kishining baxti - bel, bilagi”; “Baxt yo‘lda emas - ko‘lda”; “Baxt qayda? O‘z qo‘lingda!”; “Baxtni mehnatdan izla”; “Baxt qushini ushlamoq uchun Baxt oviga chiqmoq kerak”; “Baxtli odamni izlama, Baxt yo‘lini izla”; “Baxtiyor bo‘lsa zamon , noshukur bo‘lma – yomon”; “Baxtiyor bo‘lsa zamon, Noshukurlik ko‘p yomon”; “Noshukurda shukur bo‘lmas, Nonko‘rda - uzr”; “Birovning bergani - ko‘rgulik, mehnatning bergani - to‘ygulik”; “Birovniki - bir kunlik, O‘zingniki - ming kunlik”; “Birov bir kun to‘yg‘azar, ikki kun to‘yg‘azar, tokay to‘yg‘azar?!”; “Birni birov beradi, Ko‘pni - mehnat”; “Birov so‘z berar, bo‘z bermas”; “Birovning mis qozonidan o‘zingning qora qozoning yaxshi”; “Birovning to‘rt oyoklik otidan o‘zingning ikki oyog‘ing yaxshi”; “Birovning yog‘liq nonidan o‘zingning zog‘orang yaxshi”; “Birovga ishongan - och qolar”, “Tilab olgan - qorin to‘ydirmas”; “Kishi bergan kishiga oziq bo‘lmas”; “Birovning luqmasi bilan kishi to‘ymaydi”; “Birovniki ekan ovqating ostonasida tushib qoladi”; “Qo‘ldan berganga kush to‘ymas”; “Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan - osh bo‘lmas”

(qadimda chaqaloq bolaga to tishi chiqib, o‘zi chaynab eydigan bo‘lgunicha yegulik narsalarni avval o‘zlari chaynab, keyin yedirganlar, hozir tibbiy nuqtayi nazardan buni yoqlamaydilar); “Tilab olgan to‘n tizzaga chiqmas”; “Kishining moli kishiga sud qilmas (sud - foyda, naf); “Beruvchining qo‘li baland, oluvchining qo‘li tuban” (odatda birovga bir nima berayotgan kishining qo‘li olayotgan kishining qo‘lidan balandroq turadi); “Tilab olgan izzat - o‘limdan qagtiq”; “Termulganing-tilanganing emasmu?!”; Tilangandan-tilingan yaxshi”; “Egilmagan boshdan bo‘rk tushmas”; “Birovning ishi - ko‘ngilning xushi”; “ Birovning ishiga birovning qo‘li saratonda sovg‘otibdi”; “Birovning g‘ami erta kirsar, kech chiqar”; “Birovga qolgan kun - tong otmagan kun” va h.k. Ko‘rinib turibdiki, ushbu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, ma‘naviy go‘zal insonni voyaga yetkazishda donishmand va mehnatkash xalqimiz yaratgan va bebaho bisotimizga aylangan ushbu madaniy meros durdonalari alohida o‘rin tutadi. Ularda inson go‘zal va sharafli ishlarni bunyod etish uchun yaratilganligi, mehnatni sevishi, mehnatkash elini hurmat qilishi, mustahkam e‘tiqodli va irodali bo‘lishi, Vatanni chin sadoqat bilan sevishi va unga qo‘lidan kelgancha xizmat qilishi kabi chaqiriq va da‘vatlar yotadi, hayot gulshanida sayqal topgan, tajribadan o‘tgan durdona fikrlar bayon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2012. – 512 b.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
3. Hojiyev A., Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
4. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma‘nolar maxzani . -T.: 2001
5. Macmillan English Dictionary. Second Edition. Macmillan Publishers Limited, 2007.
6. Abovewhispers.com
7. Lemongrad.com
8. <https://www.goodhousekeeping.com>.